

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
431 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlarning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvi tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyalashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foydalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida qarz mablag'lari va xorijiy valyuta ayirboshlash bozorlarining ta'minot va talab mexanizmlari: nazariy asoslar va amaliy tahlil	406
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	414
Umarov Davron Shavkatovich	
O'zbekistonda raqamli bozorlar rivojlanishi: asosiy tendensiyalar va raqobat holati	424
Saparov Islom O'lmasovich	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BOZORLAR RIVOJLANISHI: ASOSIY TENDENSIYALAR VA RAQOBAT HOLATI

Saparov Islom O'Imasovich

Mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida raqamli bozorlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda elektron tijorat (e-commerce) platformalarining o'sish dinamikasi, raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi, raqobat muhitining o'ziga xos xususiyatlari hamda asosiy bozor ishtirokchilarining strategiyalari o'rganilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli bozorlar jadal sur'atlar bilan kengayib, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, infratuzilma imkoniyatlarini yanada rivojlantirish, raqamli savodxonlik darajasini oshirish va foydalanuvchilar ishonchini mustahkamlash zaruriyati saqlanib qolmoqda. Maqolada, shuningdek, mahalliy va xorijiy platformalar o'rtasidagi raqobat dinamikasi, narx belgilash strategiyalari va iste'molchilar xulq-atvorining o'ziga xos jihatlari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bozorlar, e-commerce, O'zbekiston, raqamli iqtisodiyot, raqobat tahlili, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, raqamli to'lov tizimlari.

Abstract: This article analyzes the processes of formation and development of digital markets in the Republic of Uzbekistan. The study explores the growth dynamics of e-commerce platforms, the introduction of digital payment systems, the characteristics of the competitive environment, and the strategic behavior of major market participants. The findings indicate that digital markets in Uzbekistan are expanding rapidly and becoming an integral part of the national economy. However, further improvements in digital infrastructure, enhancement of digital literacy, and strengthening of consumer trust remain essential for sustainable development. The article also provides a detailed analysis of the competition dynamics between domestic and foreign platforms, pricing strategies, and distinctive features of consumer behavior.

Keywords: digital markets, e-commerce, Uzbekistan, digital economy, competition analysis, digital transformation, e-commerce, digital payment systems.

Аннотация: Статья посвящена анализу процессов формирования и развития цифровых рынков в Республике Узбекистан. В исследовании рассматриваются динамика роста платформ электронной коммерции, внедрение цифровых платёжных систем, особенности конкурентной среды и стратегии основных участников рынка. Результаты показывают, что цифровые рынки в Узбекистане активно расширяются и становятся важной частью национальной экономики. В то же время сохраняется необходимость дальнейшего развития инфраструктуры, повышения уровня цифровой грамотности и укрепления доверия пользователей. В статье также подробно анализируется динамика конкуренции между отечественными и зарубежными платформами, ценовые стратегии и особенности поведения потребителей.

Ключевые слова: цифровые рынки, электронная коммерция, Узбекистан, цифровая экономика, анализ конкуренции, цифровая трансформация, электронная коммерция, цифровые платёжные системы.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global iqtisodiyot tuzilmasida tub o'zgarishlarga olib keldi. Raqamli bozorlar an'anaviy savdo shakllari bilan bir qatorda iqtisodiyotning muhim segmentiga aylandi hamda ko'plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadigan darajaga yetdi. Jahon savdo tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, global elektron tijorat hajmi 2023-yilda 5,8 trillion AQSh dollaridan oshgan va bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sishda davom etmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayondan chetda qolmay, so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni izchil amalga oshirib kelmoqda. 2017-yildan boshlab O'zbekiston hukumati iqtisodiyotni liberallashtirish va raqamlashtirish yo'nalishida strategik dasturlarni bosqichma-bosqich joriy etib kelmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi raqamli iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilab, davlat boshqaruvidan tortib xususiy sektorgacha bo'lgan barcha sohalarda raqamli



transformatsiyani jadallashtirdi [2]. Ushbu siyosat natijasida internet infratuzilmasi kengaytirildi, raqamli to'lov tizimlari joriy etildi va elektron tijorat platformalari jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi.

2020–2024-yillar davomida COVID-19 pandemiyasi raqamli xizmatlar va onlayn savdo sohalarining o'sishini yanada tezlashtirdi. Karantin davrida iste'molchilar an'anaviy do'konlardan ko'ra onlayn platformalarga ko'proq murojaat qila boshladilar. Bu holat raqamli bozorlarning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi va mamlakatda raqamli iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirdi.

Raqamli bozorlarning o'ziga xos jihatlari ularni an'anaviy bozorlardan tubdan farqlaydi. Birinchidan, raqamli muhitda geografik cheklolar deyarli yo'qoladi, natijada kichik tadbirkorlar ham o'z mahsulotlarini milliy va xalqaro miqyosda taklif eta oladilar. Ikkinchidan, narxlar shaffofligi ortadi va iste'molchilar turli platformalarda narxlarni osongina taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Uchinchidan, kirish to'siqlarining nisbatan pastligi yangi ishtirokchilar uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa bozor raqobatini yanada kuchaytiradi [3]. O'zbekiston sharoitida mazkur omillar mahalliy va xalqaro platformalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga olib keldi.

O'zbekiston raqamli bozorlarining rivojlanishini o'rganish bir necha sabablar tufayli dolzarb ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, mamlakatda 35 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi va aholining o'rtacha yoshi nisbatan yosh bo'lib, bu raqamli xizmatlar uchun katta potentsial bozor yaratadi. Ikkinchidan, mobil internetning keng tarqalishi hamda smartfonlardan foydalanish darajasining ortishi raqamli xizmatlar va elektron tijoratning rivojlanishi uchun mustahkam texnologik asos yaratmoqda. Uchinchidan, hukumat tomonidan raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash siyosati va tartibga solish tizimining takomillashtirilishi investorlar hamda tadbirkorlar uchun yanada qulay muhitni yuzaga keltirdi [4].

Shu bilan birga, mamlakatda infratuzilma imkoniyatlarini yanada kengaytirish, aholining raqamli savodxonlik darajasini oshirish va onlayn to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash istiqboldagi muhim vazifalar sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot asosan ikkilamchi ma'lumotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, ilmiy adabiyotlar, davlat statistikasi, bozor tahlillari hamda ekspert hisobotlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida kontekstual tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Raqamli bozorlar nazariyasiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratning rivojlanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unga texnologik infratuzilma, tartibga solish muhiti, iste'molchilarning xulq-atvori hamda madaniy omillar kabi ko'plab faktorlar ta'sir ko'rsatadi. Evans va Schmalensee tomonidan ishlab chiqilgan ikki tomonlama bozorlar nazariyasi raqamli platformalarning iqtisodiy mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi [5]. Ularning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli raqamli platformalar sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida samarali vositachilik qilib, tarmoq effektlaridan oqilona foydalanadilar. O'zbekiston kontekstida ushbu nazariya mahalliy platformalarning rivojlanish strategiyalarini tahlil etishda nazariy asos sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanayotgan bozorlar sharoitida elektron tijorat bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Gomez-Herrera va hamkorlari Yevropa mamlakatlari misolida ta'kidlashlaricha, internetga kirish imkoniyatlari, logistika infratuzilmasi hamda to'lov tizimlarining rivojlanganlik darajasi elektron tijorat o'sishining asosiy determinantlari sifatida namoyon bo'ladi [6]. O'zbekiston uchun bu omillar yanada dolzarb, chunki mamlakatda ushbu sohalar izchil takomillashib bormoqda. So'nggi yillarda internetga kirish darajasi sezilarli darajada oshgan, ayniqsa mobil internet tarmog'ining kengayishi bu borada muhim yutuq hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi taqqoslama tadqiqotlar O'zbekiston va Qozog'istonning mintaqada yetakchi o'rinlarni egallayotganini ko'rsatadi, bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyot sohasidagi raqobatbardoshligini tasdiqlaydi [7].

Raqobat nazariyasi nuqtai nazaridan, Porter tomonidan ishlab chiqilgan "besh kuch" modeli raqamli bozorlar sharoitida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Yangi ishtirokchilarning kirish ehtimoli, o'rnini bosuvchi mahsulotlar tahdidi, xaridorlarning savdolashish kuchi, yetkazib beruvchilarning imkoniyatlari va mavjud raqobat intensivligi raqamli muhitda o'ziga xos shakl kasb etadi [8]. Raqamli bozorlar uchun xos jihat shundaki, kirish to'siqlari nisbatan past bo'lsa-da, tarmoq effektlari va platformaga sodiqlik omili yetakchi kompaniyalarga barqaror raqobat ustunligi yaratadi. O'zbekiston raqamli bozorida Uzum Market, Olcha.uz, Mediapark.uz kabi mahalliy platformalar hamda AliExpress, Wildberries kabi xalqaro platformalar o'rtasida faol raqobat muhiti shakllangan.

COVID-19 pandemiyasining raqamli tijoratga ta'siri bo'yicha xalqaro tadqiqotlar elektron savdoning global miqyosda tez sur'atlar bilan kengayganini ko'rsatadi. BMT savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) hisobotlariga ko'ra, 2020-yilda global onlayn savdo hajmi 2019-yilga nisbatan 25–30 foizga oshgan [1]. O'zbekiston kontekstida Karimov va hamkorlarining tadqiqotlari pandemiya davrida mahalliy elektron tijorat

platformalarida foydalanuvchilar soni ikki baravar ortganini, onlayn buyurtmalar hajmi esa sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi [2]. Bu o'zgarishlarning bir qismi vaqtinchalik bo'lgan bo'lsa-da, aksariyat iste'molchilar onlayn xarid qilish odatini saqlab qoldilar, bu esa uzoq muddatli istiqbolda bozorning barqaror o'sishiga zamin yaratdi.

Raqamli to'lov tizimlari va moliyaviy texnologiyalar elektron tijoratni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Dahlberg va hamkorlari to'lov tizimlarining ishonchiligi, xavfsizligi va qulayligi iste'molchilarning onlayn xarid qilish qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqladilar [3]. O'zbekistonda Payme, Click, Uzum Bank kabi mahalliy to'lov tizimlari va raqamli hamyonlar so'nggi yillarda jadal rivojlandi, bu esa elektron tijoratning o'sishiga sezilarli turtki berdi. Davlat tomonidan naqd pulsiz to'lovlarni rag'batlantirish siyosati ham bu jarayonni tezlashtirdi. Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligi oshgani sari onlayn to'lov tizimlariga bo'lgan ishonch ham izchil mustahkamlanmoqda.

Logistika va yetkazib berish tizimlarining samarali ishlashi elektron tijorat muvaffaqiyatining muhim omillaridan biridir. Mangiaracina va hamkorlari onlayn savdoning kengayishi bilan birga logistika tizimlariga bo'lgan talabning ortishini va bu yo'nalishda innovatsion yechimlarning zarurligini ta'kidladilar [4]. O'zbekistonda so'nggi yillarda yetkazib berish infratuzilmasi bosqichma-bosqich takomillashtirilib, tezkor xizmat tarmoqlari kengaymoqda. Ayniqsa Uzum Tezkor, Yandex.Lavka kabi zamonaviy yetkazib berish xizmatlarining paydo bo'lishi bozorga yangi dinamika kiritdi va iste'molchilar kutishlariga mos xizmat sifatini ta'minladi.

Iste'molchilar xulq-atvori va ishonch masalalari bo'yicha tadqiqotlar raqamli bozorlarning rivojlanishida psixologik va ijtimoiy omillarning o'ta muhimligini ko'rsatadi. Gefen onlayn savdoda ishonchning markaziy rolini ta'kidlab, platformaga, to'lov tizimiga va sotuvchiga bo'lgan ishonch iste'molchi qarorining hal qiluvchi omili ekanligini aniqladi [9]. O'zbekiston jamiyatida an'anaviy savdo madaniyati mustahkam bo'lgani uchun ishonch omili yanada ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababli, mahalliy platformalar mijozlar ishonchini oshirish maqsadida turli strategiyalarni joriy etmoqda — mahsulotlarni qaytarish imkoniyatini kengaytirish, sifat kafolatlarini ta'minlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda batafsil mahsulot tavsiflari va reyting tizimini yaratish bu yo'nalishdagi ijobiy misollardir.

Tartibga solish va huquqiy muhit elektron tijorat rivojlanishida davlatning rolini belgilovchi muhim omildir. OECD tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aniq va barqaror tartibga solish choralari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari hamda raqamli biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari elektron tijoratning barqaror o'sishini ta'minlaydi [10]. O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda bir qator qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun sohaning asosiy huquqiy bazasini yaratib, elektron shartnomalar, elektron imzo, onlayn to'lovlar hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalarini tartibga soldi. Shuningdek, soliq imtiyozlari va startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari raqamli tadbirkorlikni yanada rag'batlantirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti so'nggi yillarda jadal rivojlanib, 2018–2024-yillar davomida elektron tijorat, raqamli to'lov tizimlari va onlayn xizmatlar hajmi sezilarli oshdi. 2024-yil yakunida elektron tijorat hajmi 25 trillion so'mdan oshib, o'tgan yilga nisbatan 40 foizga o'sdi. Mobil to'lov tizimlari foydalanuvchilari soni esa 20 milliondan ortdi.

Bozor tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron savdo segmentida Uzum Market, Olcha.uz, Mediapark kabi platformalar yetakchilik qilmoqda; 3–4 ta platforma umumiy hajmning 70 foizini egallagan. Shu bilan birga, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yangi startap loyihalari orqali raqobat muhiti kengaymoqda.

Raqamli to'lov tizimlarida Click, Payme, Apelsin va Uzumpay kabi platformalar yetakchi hisoblanib, raqobat barqaror shaklda rivojlanmoqda. Taksi xizmatlari va ilovalar do'konlarida esa konsentratsiya yuqori bo'lib, tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Xalqaro tajriba, xususan Yevropa Ittifoqining Digital Markets Act (2022) va AQShning antitrust siyosati raqamli bozorlarni faol tartibga solish zaruratini ko'rsatadi. O'zbekistonda esa bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Milliy qonunchilikda dominantlikni aniqlashda tarmoq effektlari, ma'lumotlar oqimi va ko'p tomonlama bozor modeli kabi yangi mezonlar joriy etilishi muhim.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotda vertikal va gorizontal integratsiya jarayonlari kuchaymoqda. Uzum ekotizimi kabi yirik guruhlar bir nechta segmentlarda faoliyat yuritib, samaradorlikni oshirmoqda. Bu ijobiy tendensiya bo'lib, raqobatni rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston raqamli bozorlarining tahlili so'nggi yetti yilda mamlakatda elektron tijoratning tez sur'atlar bilan o'sayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, elektron tijorat hajmi




2018-yilda taxminan 150 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 1,5 milliard AQSh dollariga yetgan, ya'ni o'n barobar o'sish kuzatilgan [2]. Ushbu o'sish COVID-19 pandemiyasi davrida (2020–2021-yillar) ayniqsa tez kechgan, chunki onlayn xaridlar hajmi yillik 80–100 foiz atrofida o'sish ko'rsatgan. Pandemiyadan keyingi davrda o'sish sur'ati biroz sekinlashgan bo'lsa-da, barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib qolgan va 2024-yilda elektron tijorat hajmining 2 milliard AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

Raqobat muhitining tahlili O'zbekiston raqamli bozorida mahalliy va xorijiy platformalar o'rtasida intensiv raqobat mavjudligini ko'rsatadi. Mahalliy platformalar orasida Uzum Market, Olcha.uz, Mediapark.uz va Asaxiy.uz yetakchi o'rinlarni egallaydi. Uzum Market, Uzum Tezkor va Uzum Bank kabi xizmatlarni birlashtirgan ekotizim yaratish strategiyasi orqali bozorda kuchli pozitsiyaga ega bo'lgan va 2023-yilda bozorning taxminan 35–40 foizini egallagan. Olcha.uz va Mediapark.uz asosan elektronika va maishiy texnika segmentlarida faoliyat yuritib, narx raqobatbardoshligi hamda keng mahsulot assortimenti bilan ajralib turadi. Xorijiy platformalar orasida AliExpress va Wildberries muhim o'ringa ega. AliExpress asosan arzon Xitoy mahsulotlari segmentida faoliyat yuritadi, Wildberries esa kiyim va poyabzal toifasida kuchli pozitsiyaga ega. Xorijiy platformalarning afzalliklari keng xalqaro assortiment va ko'pincha pastroq narxlarda namoyon bo'ladi, biroq uzoq yetkazib berish muddatlari hamda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlari bilan bog'liq ayrim cheklovlar mavjud.

Raqobat strategiyalari tahlili platformalarning turli yondashuvlardan foydalanayotganini ko'rsatadi. Narx strategiyalari nuqtai nazaridan, mahalliy platformalar ko'pincha chegirmalar, aksiyalar va sodiqlik dasturlari orqali mijozlarni jalb etishga e'tibor qaratadi. Masalan, Uzum Market keng qamrovli cashback tizimini joriy etgan va muntazam ravishda turli mahsulot toifalarida chegirmalar taklif etadi. Xizmat differentsiatsiyasi strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega: tez yetkazib berish (ba'zi platformalar Toshkent shahri doirasida bir necha soat ichida yetkazib berish xizmatini taqdim etadi), bepul yetkazib berish chegarasini kamaytirish, mahsulotlarni oson qaytarish imkoniyati va professional mijozlarga xizmat ko'rsatish. Ba'zi platformalar, ayniqsa elektronika segmentida, o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarini ham taqdim etadi.

O'zbekiston elektron tijorat bozorining dinamik o'sishini yaqqol ko'rsatadi. 2020-2021-yillarda pandemiya ta'sirida o'sish sur'ati eng yuqori darajaga yetdi va bozor hajmi ikki yil ichida deyarli ikki baravar oshdi. Faol foydalanuvchilar soni ham keskin ortdi: 2018-yilda atigi 800 ming bo'lgan foydalanuvchilar soni 2023-yilda 9.2 millionga yetdi. Bu o'sish internetga kirish imkoniyatlarining kengayishi, smartfonlarning arzonlashishi va pandemiya davrida shakllangan onlayn xarid qilish odatlari bilan bog'liq. 2024-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari o'sishning davom etishini taxmin qilmoqda, garchi sur'at pandemiyadagi darajaga qaytmasa ham, barqaror rivojlanish kutilmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston elektron tijorat bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2018–2024-yillar)

Raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi O'zbekistonda elektron tijorat o'sishining muhim qo'zg'atuvchisi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, naqd pulsiz to'lovlar ulushi umumiy to'lovlar hajmida 2018-yilda 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 48 foizga yetgan. Bank

kartalari soni ham izchil oshgan: 2018-yilda 12 million karta mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib bu raqam 28 milliondan oshgan.

Payme, Click va Uzum Bank kabi raqamli to'lov tizimlari hamda elektron hamyonlar so'nggi yillarda faol rivojlandi. Ularning umumiy foydalanuvchilar soni 15 milliondan ortdi. Ushbu o'zgarishlar elektron tijorat uchun mustahkam texnologik infratuzilmani shakllantirdi. Aholining katta qismi hali ham yetkazib berish vaqtida naqd to'lovni afzal ko'rsa-da (taxminan 60 foiz), bu jarayon asta-sekin raqamli to'lovlarga o'tish tendensiyasi bilan almashmoqda. So'nggi yillarda onlayn to'lov tizimlariga bo'lgan ishonch ortib, tranzaksiyalar hajmi izchil ko'paymoqda.

Logistika va yetkazib berish infratuzilmasining tahlili bu sohada ham sezilarli taraqqiyot kuzatilayotganini ko'rsatadi. Asosiy elektron tijorat platformalari o'z yetkazib berish tarmoqlarini kengaytirib, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Namangan va Andijon kabi yirik shaharlarda bir-ikki kunlik yetkazib berish xizmatini yo'lga qo'ydilar. Toshkent shahri doirasida esa ekspres-yetkazib berish tizimlari samarali faoliyat yuritmoqda — ayrim platformalar mahsulotni bir necha soat ichida yetkazib berishni kafolatlamogda.

Qishloq joylar va uzoq hududlarda yetkazib berish tizimlari ham bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Ba'zi hollarda yetkazib berish muddati 5–7 kungacha cho'zilishi mumkin bo'lsa-da, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ishlari natijasida bu muddat qisqarib bormoqda. Xizmat narxlari ham bosqichma-bosqich optimallashtirilmoqda, bu esa aholining barcha qatlamlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston raqamli bozorida asosiy platformalarning bozor ulushi va xususiyatlari (2023-yil holatiga ko'ra)

Platforma	Bozor ulushi (%)	Asosiy kategoriya	Yetkazib berish muddati	Raqobat afzalliklari
Uzum Market	38	Universal	1-3 kun, ekspres	Ekotizim, cashback tizimi, keng assortiment
Olcha.uz	18	Elektronika	1-2 kun	Past narxlar, muddatli to'lov imkoniyati
Mediapark.uz	12	Elektronika, texnika	1-2 kun	Keng filial tarmog'i, yuqori xizmat sifati
AliExpress	15	Universal (import)	15-30 kun	Arzon narxlar, xalqaro assortiment
Wildberries	8	Kiyim, poyabzal	7-10 kun	Keng moda assortimenti, tezkor xizmat
Boshqalar	9	Turli	Turli	Ixtisoslashgan segmentlar, moslashuvchan xizmatlar

O'zbekiston raqamli bozorining raqobat tuzilmasi mamlakatdagi asosiy platformalarning faoliyat yo'nalishlari va strategik ustunliklarini aks ettiradi. Uzum Market 38 foizlik ulush bilan yetakchi pozitsiyani egallab, raqamli savdo sohasida barqaror o'sishni ta'minlamoqda. Bu muvaffaqiyat, avvalo, kompaniyaning ekotizim strategiyasi, keng mahsulot assortimenti hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati bilan bog'liq. Olcha.uz va Mediapark.uz elektronika segmentida faol raqobat olib borib, umumiy bozorning 30 foiziga yaqin qismini nazorat qilmoqda.

Xorijiy platformalar orasida, ayniqsa, AliExpress 15 foizlik ulush bilan muhim o'rinni egallaydi. Bu holat uning narx afzalligi va xalqaro assortimentga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi. Wildberries esa kiyim-kechak va poyabzal segmentida o'ziga xos pozitsiyaga ega bo'lib, mahalliy raqobatchilar bilan bir qatorda bozorda faol ishtirok etmoqda. Uzoq yetkazib berish muddatlari va bojxona jarayonlarining murakkabligi endilikda bosqichma-bosqich optimallashtirilib, xorijiy platformalarning mamlakat ichki bozoridagi ishtiroki yanada samarali bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Iste'molchilar xulq-atvori va afzalliklarining tahlili O'zbekiston raqamli bozorining o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbekistonlik onlayn xaridorlarning asosiy motivatsiyalari qulaylik (76%), narxlarni taqqoslash imkoniyati (68%), vaqtni tejash (62%) hamda keng assortimentdan tanlash imkoniyati (58%) bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim to'siqlar ham mavjud bo'lib, ular asosan mahsulot sifatiga ishonch (54%), to'lov tizimlariga nisbatan ishonch (48%) hamda mahsulotni bevosita ko'rib yoki sinab ko'rish imkoniyatining cheklanganligi (45%) bilan bog'liq. Biroq, so'nggi yillarda platformalar tomonidan joriy etilgan kafolatli qaytarish tizimlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlarining oshishi va tezkor yetkazib berish xizmatlari ushbu omillarning ta'sirini sezilarli darajada kamaytirmoqda.

Demografik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 18–35 yosh oralig'idagi foydalanuvchilar onlayn xaridorlarning 72 foizini tashkil etadi. Bu yosh avlodning raqamli texnologiyalarga yuqori moslashuvchanligi va yangi savdo formatlarini tez qabul qilish xususiyatini ifodalaydi. Gender taqsimoti nisbatan muvozanatli — erkaklar 52 foizni, ayollar esa 48 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, xarid qilinadigan mahsulot toifalarida farqlar mavjud: erkaklar



ko'proq elektronika va texnika mahsulotlarini afzal ko'rsalar, ayollar kiyim-kechak, kosmetika va maishiy tovarlarga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Xalqaro taqqoslash natijalari O'zbekiston raqamli bozorining global kontekstdagi o'rnini yoritadi. Rivojlangan mamlakatlarda elektron tijorat umumiy chakana savdo hajmining 15–25 foizini tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich hozircha 3–4 foiz atrofida. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyotning katta o'sish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Mintaqaviy kesimda O'zbekiston Qozog'istonga nisbatan biroz ortda bo'lsa-da, boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga qaraganda sezilarli ustunlikka ega. Qozog'istonda raqamli bozor hajmi taxminan 3,5 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, aholisi soni kamroq bo'lishiga qaramay, kishi boshiga to'g'ri keladigan onlayn xaridlar hajmi yuqoriroq. Rossiya bozori bilan taqqoslaganda, O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti hali rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, o'sish sur'atlari va dinamikasi ijobiy tendensiyalarni namoyon etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston raqamli bozorlarining rivojlanishi so'nggi yetti yil davomida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar va raqamlashtirish siyosatining muhim natijasidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston elektron tijorat bozori 2018–2023-yillar oralig'ida o'n barobar o'sib, 1,5 milliard AQSh dollariga yetgan. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanayotganini va iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirayotganini ko'rsatadi. COVID-19 pandemiyasi (2020–2021-yillar) ushbu jarayonni tezlashtirgan, ko'plab iste'molchilarni an'anaviy savdo usullaridan raqamli platformalarga o'tishga undagan. Pandemiyadan keyingi davrda ham o'sish sur'atlari barqaror davom etmoqda, bu esa onlayn xarid qilish aholining kundalik iste'mol madaniyatiga izchil singib borayotganidan dalolat beradi.

Raqobat muhiti tahlili O'zbekiston raqamli bozorida mahalliy va xorijiy platformalar o'rtasida sog'lom raqobat shakllanganini ko'rsatadi. Uzum Market ekotizim strategiyasi orqali yetakchi pozitsiyasini mustahkamlab, bozorning 38 foizini egallagan. Olcha.uz va Mediapark.uz elektronika segmentida o'z o'rnini saqlab turibdi. AliExpress va Wildberries kabi xorijiy platformalar esa xalqaro assortiment va narx afzalliklari orqali raqobatda faol ishtirok etmoqda. Raqobat strategiyalari xilma-xil shakllarda namoyon bo'lib, ular orasida narx siyosati, xizmat differentsiatsiyasi, tez yetkazib berish, sodiqlik dasturlari va yuqori darajadagi mijozlarga xizmat ko'rsatish asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Platformalar o'rtasidagi bunday raqobat intensivligi iste'molchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratmoqda: narxlarning pasayishi, xizmat sifatining oshishi va yangi innovatsion yechimlarning joriy etilishi buning yaqqol dalilidir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston raqamli bozorlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator ijobiy omillar mavjud. Ularga internet tarmoqlarining kengayishi, mobil texnologiyalarning ommalashuvi, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining amalga oshirilishi hamda yosh aholining raqamli texnologiyalarga yuqori moyilligi kiradi.

Bundan tashqari, tizimni yanada mukammallashtirishni talab qiluvchi omillar ham mavjud. Ular orasida infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, onlayn to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, logistika tizimini modernizatsiya qilish va huquqiy-tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlar alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2023). Digital Economy Report 2023. Geneva – United Nations Publications.
2. Karimov, N., Sultanalieva, B. & Rakhimov, K. (2022). Digital Transformation in Uzbekistan: E-commerce Development and COVID-19 Impact. *Central Asian Economic Review*, 15(3), 45–62.
3. Dahlberg, T., Guo, J. & Ondrus, J. (2015). A Critical Review of Mobile Payment Research. *Electronic Commerce Research and Applications*, 14(5), 265–284.
4. Mangiaracina, R., Song, G. & Perego, A. (2015). Distribution Network Design: A Literature Review and a Research Agenda. *International Journal of Physical Distribution & Logistics Management*, 45(5), 506–531.
5. Evans, D. S. & Schmalensee, R. (2016). *Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms*. Boston – Harvard Business Review Press.
6. Gomez-Herrera, E., Martens, B. & Turlea, G. (2014). The Drivers and Impediments for Cross-border E-commerce in the EU. *Information Economics and Policy*, 28, 83–96.
7. Abdullaev, Y. & Kuchkarov, T. (2021). E-commerce in Central Asia: Comparative Analysis and Development Prospects. *Eurasian Journal of Business and Economics*, 14(27), 117–135.
8. Porter, M. E. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York – Free Press.
9. Gefen, D. (2000). E-commerce: The Role of Familiarity and Trust. *Omega – The International Journal of Management Science*, 28(6), 725–737.
10. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). *Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future*. Paris – OECD Publishing.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100